



SAMARQAND VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

SAMARQAND VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA’LUMOTLAR

2025-yil 1-mart holatiga ko‘ra
(fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz)

Ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasi
Adliya vazirligi Davlat xizmatlari markazi
ma’lumotlar bazasi asosida shakllantirildi



So‘nggi yillarda hukumatimiz tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va bunyodkorlik salohiyatini qo‘llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni ta’minlash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo‘g‘ini hisoblanib, bugungi kunda mazkur sohani jadallik bilan rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ularning safini yanada kengaytirish va rag‘batlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilyapti.

Jumladan, 2025-yil 1-mart holatiga ko‘ra Samarqand viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni (fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari) 38 784 tani tashkil etdi, ulardan kichik korxona va mikrofirmalar 32 559 ta.

Shuningdek, ushbu davrga 63 400 ta korxona ro‘yxatdan o‘tib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 102,2 foizni tashkil etdi.

Korxona va tashkilotlar soni to‘g‘risida umumiylumotlar (1-mart holatiga)



**Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar
(2025-yil yanvar-fevral oylarida)**


2025-yilning yanvar-fevral oylarida viloyatda yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni 1 105 tani tashkil etdi.

Hududlar bo‘yicha eng ko‘p tashkil etilgan korxona va tashkilotlar quyidagicha: Samarqand shahrida (303 ta), Pastdarg‘om (94 ta) va Urgut (94 ta) tumanlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. Tarmoqlar kesimida esa eng yuqori ko‘rsatkichni savdo – 375 ta, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish – 166 ta, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlari sohasida – 106 ta, sanoat – 104 ta va qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi – 89 taga ko‘paygani bilan izohlash mumkin.

Hududlar kesimida soni (birlikda)

Samarqand sh.	303
Pastdarg‘om t.	94
Urgut t.	94
Samarqand t.	73
Bulung‘ur t.	66
Payariq t.	66
Kattaqo‘rg‘on t.	60
Ishtixon t.	55
Nurobod t.	49
Oqdaryo t.	44
Paxtachi t.	42
Toyloq t.	39
Narpay t.	37
Jomboy t.	31
Qo‘shrabot t.	30
Kattaqo‘rg‘on sh.	22

Yillar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

(2025-yil 1-mart holatiga)


Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 2025-yil 1-mart holatiga 38 784 tani tashkil etdi, ulardan 32 781 tasi tadbirkorlik subyektlari.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiyligi sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 36,3 foiz, sanoat – 12,4 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 8,1 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 6,1 foiz, hududlar kesimida esa eng ko'pi Samarqand shahrida – 29,7 foiz, tumanlardan Samarqand – 8,7 foiz, Pastdarg'om – 7,7 foiz, Urgut – 7,6 foiz va Payariq tumanida – 5,0 foiz faoliyat ko'rsatmoqda.


Hududlar kesimida soni (birlikda)

Samarqand sh.	11 525
Samarqand t.	3 359
Pastdarg'om t.	2 992
Urgut t.	2 955
Payariq t.	1 947
Kattaqo'rg'on t.	1 874
Ishtixon t.	1 697
Toyloq t.	1 697
Bulung'ur t.	1 671
Oqdaryo t.	1 528
Jomboy t.	1 452
Narpay t.	1 327
Nurobod t.	1 280
Kattaqo'rg'on sh.	1 266
Paxtachi t.	1 143
Qo'shrabot t.	1 071

Yillar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)




Yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari to‘g‘risida ma’lumotlar

(2025-yil yanvar-fevral oylarida)

Davlatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlariga qulay shart-sharoitlar yaratib borish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida ularning yildan-yilga investitsiya va ishbilarmonlik muhiti yaxshilanib borayotgani namoyon bo‘lmoqda. 2025-yil yanvar-fevral oylarida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni 936 ta bo‘lib, shundan:

- mikrofirmalar va kichik korxonalar 932 ta;
- Yirik korxonalar 4 tani tashkil etdi.

Hududlar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)

Qishloq, o’rmon va baliqchilik xo’jaligi	89	
Sanoat	104	
Qurilish	54	
Savdo	375	
Tashish va saqlash	30	
Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	106	
Axborot va aloqa	32	
Sog’liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko’rsatish	21	
Boshqa turlar	125	

Yillar kesimida soni (birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumotlar

(2025-yil 1-mart holatiga)

Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 2025-yil 1-mart holatiga 32 781 tani tashkil etdi, ulardan 32 559 tasi kichik korxona va mikrofirmalar.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 43,0 foiz, sanoat – 14,7 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 9,5 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 7,1 foiz, qurilish – 6,4 foiz, tashish va saqlash – 2,9 foiz, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – 2,8 foiz, axborot va aloqa – 1,9 foiz, boshqa turlari – 11,7 foiz.

Hududlar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	2 340	
Sanoat	4 808	
Qurilish	2 099	
Savdo	14 087	
Tashish va saqlash	944	
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	3 117	
Axborot va aloqa	631	
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	925	
Boshqa turlar	3 830	

Yillar kesimida soni (birlikda)




Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari to‘g‘risida ma’lumotlar

(2025-yil yanvar-fevral oylarida)

Mamlakat iqtisodiyoti “sog‘lomligi”ni baholashning muhim omili kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat ko‘rsatishi bo‘lib, bu uning moslashuvchanligi va doimiy o‘zgaruvchan iqtisodiy vaziyatlarga moslasha olish ko‘rsatkichidir.

Shunda, 2025-yil yanvar-fevral oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi sohasida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari soni 2024-yilning mos davriga nisbatan 82 tadan 89 taga (o‘sish 7 taga) ko‘paydi.


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



Yillar kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes subyektlari to'g'risida ma'lumotlar

(2025-yil 1-mart holatiga)


Hududlar kesimida eng ko'p kichik biznes subyektlari Samarqand shahrida (30,7 foiz), Samarqand (9,3 foiz), Pastdarg'om (7,7 foiz), Urgut (7,3 foiz) va Payariq (4,9 foiz) tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu hududlarda jami kichik biznes subyektlari sonining 50 foizdan ortig'i faoliyat ko'rsatmoqda.

Ma'lumki, ayni paytda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ilg'or faoliyat yuritmoqda.


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



Yillar kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)



**Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida faoliyat
ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar
(2025-yil 1-mart holatiga)**


Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar – qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga xizmat qiluvchi, xo'jalik yuritish jarayonida yuridik shaxs huquqiga ega xo'jalik yurituvchi subyekt hisoblanadi.

Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning eng ko'p qismi Nurobod (14,3 foiz), Pastdarg'om (12,1 foiz) va Kattaqo'rg'on (11,6 foiz) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

Hududlar kesimida soni (birlikda)

Nurobod t.	339
Pastdarg'om t.	288
Kattaqo'rg'on t.	277
Samarqand t.	272
Bulung'ur t.	230
Oqdaryo t.	133
Payariq t.	119
Paxtachi t.	106
Ishtixon t.	101
Samarqand sh.	89
Urgut t.	89
Qo'shrabot t.	83
Narpay t.	78
Jomboy t.	76
Toyloq t.	65
Kattaqo'rg'on sh.	33

Yillar kesimida soni (birlikda)




(2025-yil 1-mart holatiga)


Sanoat – iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo‘lgan tarmoqlardan hisoblanadi.

Sanoat korxonalarini soni jami korxona va tashkilotlarning 12,4 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan. – 94,1 foizini ishlab chiqarish sanoati, 4,4 foizini tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, 1,1 foizini suv bilan ta’minalash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish va 0,3 foizini elektr, gaz bug‘ bilan ta’minalash va havoni konditsiyalash tashkil etgan.

Hududlar kesimida soni (birlikda)



Yillar kesimida soni (birlikda)




(2025-yil 1-mart holatiga)



O‘zbekistonda qurilish sanoati iqtisodiyotning ustuvor tarmog‘i sifatida belgilangan. Qurilish sanoatining yo‘nalishlari bo‘yicha o‘tkazilgan tahlil shuni ko‘rsatdiki:

- binolar va inshootlar qurish yo‘nalishi 58,5 foiz ulushni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo‘nalishidagi korxonalar soni esa 22,0 foiz ulushni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo‘nalishidagi korxonalar soni 19,5 foiz ulushni tashkil etdi;

Hududlar kesimida soni (*birlikda*)



Yillar kesimida soni (*birlikda*)




(2025-yil 1-mart holatiga)

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, viloyatda faoliyat ko‘rsatayotgan har uchinchi korxona savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning 99,7 foizi yoki 14 042 tasi kichik biznes subyektlariga to‘g‘ri keladi.

Savdo sohasining yo‘nalishlar bo‘yicha taqsimoti quyidagicha:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo‘nalishi 70,7 foiz ulushni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo‘nalishida 20,0 foiz ulushni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta’mirlash yo‘nalishida 9,3 foiz ulushni tashkil etdi.

Hududlar kesimida soni (birlikda)



Yillar kesimida soni (birlikda)



(2025-yil 1-mart holatiga)


Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 2025-yil 1-mart holatiga 3 128 taga yetib, 3 107 tasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.

Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko'rsatdiki:


- restoran va buyurtma bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazish, oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasining 85,9 foiz ulushini tashkil etdi.

- mehmonxonalar, turistik oromgohlar, dam olish va ko'ngilochar parklar yashash bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosiy faoliyati hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning 14,1 foiz ulushini tashkil etdi;

Hududlar kesimida soni (birlikda)



Yillar kesimida soni (birlikda)



(2025-yil 1-mart holatiga)


2025-yil 1-mart holatiga kompyuter dasturlash va aloqa bo‘limida korxona va tashkilotlar soni, axborot va kommunikatsiyalar sohasida faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar umumiy sonining 70,3 foizini;

- axborot xizmatlari va noshirlik faoliyatini rivojlantirish bo‘limida faoliyat yurituvchi korxonalar soni 26,6 foizini;
- ko‘rsatuvarlar va teleradioeshittirishlar yaratish hamda kino, videofilmlar, teledasturlar, fonogrammalar va yozuvlar ishlab chiqarish yo‘nalishlarida faoliyat yuritayotgan korxonalar soni esa 3,1 foizini tashkil etdi.

Hududlar kesimida soni (birlikda)

Samarqand sh.	300
Samarqand t.	46
Payariq t.	45
Urgut t.	45
Kattaqo‘rg‘on sh.	34
Oqdaryo t.	32
Ishtixon t.	27
Pastdarg‘om t.	27
Bulung‘ur t.	20
Kattaqo‘rg‘on t.	19
Toyloq t.	17
Qo‘schrabot t.	10
Jomboy t.	9
Narpay t.	8
Nurobod t.	6
Paxtachi t.	4

Yillar kesimida soni (birlikda)



Kompyuter dasturlashtirish,
maslahat berish va boshqa
yordamchi xizmatlar

226

Aloqa



Noshirlik faoliyati

88

Axborot xizmati
ko‘rsatish sohasidagi
faoliyat



Kino-videofilmlar,
televizion dasturlar,
fonogrammalar va musiqali
yozuvlarni ishlab chiqish

12

Dasturlar yaratish bo‘yicha
faoliyat va teleko‘rsatuv
va radio eshittirish



(2025-yil 1-mart holatiga)

Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan jami korxona va tashkilotlarning salmoqli qismi – 925 tasi yoki 79,1 foizi tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri kelgan.

Yo‘nalishlar bo‘yicha tahlilar shuni ko‘rsatdiki:

- ushbu sohadagi korxonalar sonining 98,0 foizi sog‘liqni saqlash yo‘nalishiga to‘g‘ri keladi;


- yashash uchun joy bilan ta’minlangan holda parvarishlash yo‘nalishidagi korxonalar soni 1,3 foizni tashkil etdi;

- yashash uchun joy bilan ta’milanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish yo‘nalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning 0,7 foizini tashkil etdi.

Hududlar kesimida soni (birlikda)

Samarqand sh.	433
Urgut t.	89
Pastdarg‘om t.	73
Payariq t.	66
Samarqand t.	66
Toyloq t.	64
Ishtixon t.	56
Nurobod t.	50
Oqdaryo t.	43
Kattaqo‘rg‘on t.	41
Jomboy t.	40
Kattaqo‘rg‘on sh.	38
Bulung‘ur t.	35
Paxtachi t.	30
Narpay t.	29
Qo‘shrabot t.	17

Yillar kesimida soni (birlikda)



(2025-yil 1-mart holatiga)

Hududlar kesimida soni (birlikda)



2025-yil 1-mart holatiga ko'ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar ulushi jami viloyatdagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning 2,4 foizini tashkil etdi.

Tashish va saqlash xizmatlarining yo'nalishlari bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatdiki:


- quruqlikdagi va quvur transporti yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni 65,5 foizini tashkil etdi;

- ombor xo'jaligi va yordamchi transport yo'nalishining korxonalar soni 30,1 foizini;

- pochta va kuryerlik yo'nalishidagi korxonalar soni 3,5 foizini;

- havo va suv transporti yo'nalishidagi korxonalar soni 0,9 foizini tashkil etgan.

Yillar kesimida soni (birlikda)



33



285



621


**Faoliyat ko‘rsatayotgan tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy
shakli bo‘yicha umumiy ma’lumot**
(2025-yil 1-mart holatiga)

Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning biriktirilishi, shakllantirilishi va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quyidagilar bilan bog‘liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:

- xo‘jalik yurituvchi subyektlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;
- tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma’lumotlarini ishlab chiqish;
- idoralararo axborot almashinishini ta’minalash;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarни tahlil qilish va prognozlashtirish.

**Tadbirkorlik subyektlari soni
(birlikda)**

**Tadbirkorlik subyektlarining
jamiga nisbatan ulushi (foizda)**



(2025-yil yanvar-fevral oylarida)

Mas'uliyati cheklangan jamiyat – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatları bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zları qo'shgan hissalari qiymati doirasida javobgar bo'ladilar. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari, jamiyat majburiyatları bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.


Yillar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar to'g'risida ma'lumot

(2025-yil 1-mart holatiga)


Amaldagi 32 781 ta tijorat korxona va tashkilotlaridan 2025-yil 1-mart holatiga mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 21 849 tani tashkil etib, tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha korxonalar orasida birinchi o'rinda turadi. Shuni xulosa qilishimiz mumkinki, mazkur korxonalar mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatining eng ko'p tarqalgan shakli hisoblanadi.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 41,6 foiz, sanoat – 13,7 foiz, qurilish – 8,4 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 8,2 foiz.


Yillar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)




Yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar to‘g‘risida ma’lumotlar

(2025-yil yanvar-fevral oylarida)

Xususiy korxona – mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot deb e’tirof etiladi. Xususiy korxona tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shaklidir.

Xususiy korxona o‘z mulkida alohida mol-mulkka ega bo‘ladi, o‘z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo‘lishi hamda ularni amalga oshirishi, majburiyatlarni bajarishi, sudda da’vogar va javobgar bo‘lishi mumkin.


Yillar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan xususiy korxonalar to'g'risida ma'lumotlar

(2025-yil 1-mart holatiga)

2025-yil 1-mart holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan xususiy korxonalar soni o'tgan yilning mos davriga nisbatan 75,9 foizni tashkil etgan.

Xususiy korxonalar sonining eng ko'pi quyidagi hududlarda qayd etilgan; Samarqand shahrida – 678 ta, Urgut tumanida – 418 ta va Pastdarg'om tumanida – 405 ta. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha esa xususiy korxonalar quyidagicha taqsimlangan, savdo sohasida – 1 990 ta, sanoat – 560 ta, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida – 373 ta va qurilish sohasida – 225 ta.


Yillar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)



Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar to‘g‘risida ma’lumotlar

(2025-yil yanvar-fevral oylarida)


Oilaviy korxonaning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko‘rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxona ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo‘lgan umumiyl mol-mulk, shuningdek, oilaviy korxona ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subyektiidir.

Oilaviy korxona faoliyati uning ishtirokchilari shaxsiy mehnatiga asoslanadi va tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakllaridan biridir.


Yillar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar to'g'risida ma'lumotlar

(2025-yil 1-mart holatiga)

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tib, faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2025-yil 1-mart holatiga ko'ra 6 577 tani tashkil etdi.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 45,1 foizi, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 22,6 foizi, sanoat – 18,4 foizi, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 4,4 foizi, hududiy kesimda esa eng ko'pi Samarqand shahrida – 26,3 foizi, Samarqand tumanida – 12,0 foizi va Pastdarg'om tumanida – 11,1 foizi faoliyat ko'rsatmoqda.


Yillar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)



(2025-yil 1-mart holatiga)

O'zbekiston Respublikasida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan qishloq xo'jaligini rivojlantirishning chur o'ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda. Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarining muhim tarkibiy qismlaridan biri meva-sabzavot yetishtirishga qaratilgan. Bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to'liq ta'minlash, ularning salomatligini saqlash va bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo'naliishlardan biriga aylandi.


Hududlar bo'yicha fermer xo'jaliklarining salmoqli qismi Urgut (13,7 foizi), Payariq (12,3 foizi) va Bulung'ur (9,9 foizi) tumanlariga to'g'ri keladi.

Hududlar kesimida soni

(birlikda)

Urgut t.	1 534
Payariq t.	1 374
Bulung'ur t.	1 103
Kattaqo'rg'on t.	1 040
Ishtixon t.	941
Nurobod t.	742
Jomboy t.	687
Qo'shrabot t.	626
Toyloq t.	614
Samarqand t.	611
Pastdarg'om t.	531
Oqdaryo t.	491
Narpay t.	455
Paxtachi t.	434
Samarqand sh.	2
Kattaqo'rg'on sh.	1

Yillar kesimida soni (birlikda)



10 878
Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va bu sohalarda xizmat ko'rsatish



304
Baliq ovlash va akvakultura

304



4

O'rmonchilik va yog'och tayyorlash




**Yangi tashkil etilgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi
korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot
(2025-yil yanvar-fevral oylarida)**

Mamlakatimizda xalqaro iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan jadal ishlar natijasida, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarining soni sezilarli darajada oshib borayotganligini ko'rishimiz mumkin.

2025-yil yanvar-fevral oylarida chet el investitsiyalari ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni 2024-yilning mos davri bilan solishtirilganda 75,0 foizni tashkil etdi.


Yillar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)




(2025-yil 1-mart holatiga)

O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalişlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Shuningdek, chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan 591 ta korxonadan 256 tasi qo'shma korxona va 335 tasi xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.


Yillar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)



Bugungi kunda O‘zbekiston iqtisodiyotining turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.

Viloyatda keyingi besh yilda chet el investitsiyalari ishtirokida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni 13,4 foizga oshdi.

Yetakchi o‘rinni 139 ta korxonada to‘liq yoki qisman ulushi mavjud bo‘lgan Xitoy egallagan. Bu viloyatda chet el investitsiyalari ishtirokida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar umumiyligining 23,5 foiz ulushini tashkil etadi.

Shuningdek, Samarqand viloyati iqtisodiyotiga o‘z kapitalini kiritayotgan Turkiya (ulushi 17,1 foiz), Rossiya Federatsiyasi (ulushi 16,1 foiz), Janubiy Koreya (ulushi 4,7 foiz) va Tojikiston (ulushi 3,0 foiz) davlatlari ham yetakchilar hisoblanishadi.


(2025-yil 1-mart holatiga)



Mamlakatimizda to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalarni jalg qilish uchun eng qulay investitsiya muhitini yaratish maqsadida iqtisodiyotni liberallashtirish, tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga aralashuvni cheklash, litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini qisqartirish va soddalashtirish, investitsiyalardan erkin foydalanishni ta‘minlash shuningdek, hududlarda zarur infratuzilmani yaratish bo‘yicha keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Natijada har yili xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalar ko‘payib bormoqda.

Hududlar kesimida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi faoliyat yuritayotgan korxonalarning jami soniga nisbatan eng katta ulushi Samarqand shahriga 47,9 foiz, tumanlar orasida esa Samarqand – 8,0 foiz, Urgut – 6,1 foiz va Jomboy – 5,6 foiz to‘g‘ri keladi.

(2025-yil 1-mart holatiga)



So‘nggi yillarda O‘zbekiston iqtisodiyotida jadal o‘sishlar kuzatilmoqda hamda xalqaro hamjamiyatda ochiqlik, innovatsiya, biznes va sarmoyaviy to‘siqlarni bartaraf etishda qat’iylik timsollaridan biri sifatida tobora ko‘proq e’tirof etilmogda.

Demak, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonining ko‘payishi, avvalambor, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining huquqiy asoslari takomillashtirilgani bilan bog‘liqdir.

(2025-yil 1-mart holatiga, *birlikda*)



Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma’lumotlardan iborat bo‘lgan axborot-ma’lumotnomasi tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikasiyalashtirishni ta’minlaydi.

Ro‘yxatga olingan – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrida mavjud bo‘lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko‘rsatayotgan – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda moliya-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to‘g‘risidagi ma’lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.


Yangi tashkil etilgan – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Kichik korxona va mikrofirmalar – O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining **2016-yil 24-avgustdagি** “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o‘tish chora-tadbirlari to‘g‘risida” **275-son** qarorining 1-ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo‘lgan korxonalar va tashkilotlar.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo‘limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma’lumotlar bazasi asosida **2025-yil 1-mart** holatiga ko‘ra (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) shakllantirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 20-apreldagi PF-113-son Farmoniga asosan, Soliq qo‘mitasi, Statistika agentligi va Adliya vazirligining davlat ro‘yxatidan o‘tgan yuridik shaxslar haqidagi ma’lumotlar bazalari o‘zaro birxillashtirildi.



Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita O'zbekiston
Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining
www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida,
so'ralayotgan yuridik shaxsnинг (STIR) kodini kiritib,
axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.



Samarqand viloyati statistika boshqarmasi
Statistik registrlarni yuritish bo'limi
Tel.:(66) 235-14-42